

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIJ TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



Ro'yxatga olinish № BE-60530400-2.06  
2024 yil "26" 06

**TABIATDAN FOYDALANISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI  
fanining  
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 500 000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika  
Ta'lim sohasi: 530 000 - Fizika va tabiiy fanlar  
Ta'lim yo'nalishi: 60530400 - Geografiya

| Fan/modul kodi | O'quv yili   | Semestr                          | ECTS - Kreditlar       |                     |
|----------------|--|----------------------------------|------------------------|---------------------|
| TFGB304        | 2024-2025  | 6                                | 4                      |                     |
| Fan/modul turi | Ta'lim tili  | Haftadagi dars soatlari          |                        |                     |
| tanlov         | O'zbek   | 4 soat                           |                        |                     |
| 1.             | Fanning nomi   | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|                | Tabiatdan foydalanishning geografik asoslari   | 60                               | 60                     | 120                 |
| 2              | <p><b>I.Fanning mazmuni</b></p> <p>Fan va texnikaning jadal rivojlanishi munosabati bilan insonning tabiatdan foydalanish va unga ta'sir etish vositalari ham kuchayib bormoqda. Jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabat sifat jihatidan yangi bosqichga o'tdi. Insonning tabiatga ta'siri shu qadap kuchayib ketdiki, katta hududlar landshafti hamda ekologik sharoiti o'zgararmoqda. Tabiatdan to'g'ri foydalanish masalasini o'rganish va hal etishda ilmiy tadqiqot ob'ektining xarakteri va ko'lamiga ko'ra geografya fani alohida o'rin tutadi. Tabiatdan to'g'ri foydalanishni tashkil etish uchun barcha tabiiy komponentlarning o'zaro aloqadorligini hamda bir - biriga ta'sir etib turishini hisobga olish va geografik qobiq turli qismlarining xilma - xilligini chuqur o'rganish lozim.</p> <p>Tabiiy resurslardan foydalanish iqtisodiyoti-yosh ilmiy fanlar jumlasiga kirib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish, tabiatdan foydalanish sohasidagi moliyalashtirish, rejalashtirish, xuquqiy-me'yoriy ta'minoti borasida ilmiy asoslangan qarorlarni qabul qilishning yangi yo'nalishlarini ochadi.</p> <p>Nazariy jihatdan tabiiy resurslardan foydalanish iqtisodiyoti barqaror ekologik iqtisodiy rivojlanishning ilmiy konsepsiyalarni yaratishga qaratilgan. Fanning amaliy ahamiyati esa inson jamiyatini hayot faoliyati muhitini saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan aniq takliflarni ishlab chiqishda ko'rinadi.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda tabiatdan foydalanishning to'g'ri yoki noto'g'riligini belgilovchi mezonni aniqlash, tabiatdan foydalanishni to'g'ri amalga oshirishda, avvalo, umumiy geografik qonuniyatlarga asoslanish, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi ekologik-iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va mohiyati haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.</p> |                                  |                        |                     |

|   |
|---|
| <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)</p> <p>1-mavzu. Tabiatdan foydalanishning geografik asoslari</p> <p>"Tabiatdan foydalanishning geografik asoslari" fani, uning tadqiqot ob'ekti va predmeti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O'quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi.</p> <p>2-mavzu. Tabiat va jamiyat</p> <p>Tabiat va jamiyat. Ularning bir butun hosila ekanligi. Tabiat bilan inson o'rtasidagi aloqadorlik. Modda va energiya almashinuvi.</p> <p>3-mavzu. Insonning tabiatga ta'siri haqida umumiy tushuncha</p> <p>Insonning tabiatdan foydalanishi. Insonning tabiatga ta'siri, uning turlari. Insonning tabiatga ta'sirining oqibatlari. Tabiatning ifloslanishi, tabiiy-texnolog muhit.</p> <p>Insonning tabiatga ta'siri. Ta'sir turlari. Tabiatni muhofaza qilish va o'zgartirish. Barqarorlashtirish. Saqlash va boyitish. Tabiatni e'zozlash va muhofaza qilish har bir kishining burchi ekanligi.</p> <p>4-mavzu. Tabiat taraqqiyotining asosiy qonunlari</p> <p>Tabiatdan foydalanishda, uni o'zgartirishda hisobga olinishi zarur bo'lgan qonuniyatlar. Tabiat qonuniyatlarining ob'ektiv qonunlar ekanligi, ularni o'rganish zarurligi. Ilm-fanning rivojlanishi bilan tabiat qonunlari haqidagi bilimlarning ham chuqurlashib borishi.</p> <p>Yer landshaft qobig'ining bir butunligi va muayyan muvozanatda turishi. Biror bir tabiat komponenti va elementining o'zgarishi bilan butun landshaft qobig'ida o'zgarish ro'y berishi, miqdoriy, muvozanat o'zgarishining tabiatda sifat o'zgarishiga olib kelishi.</p> <p>Zonallik va hududiylik qonuniyatlari. Geografik qobiqdagi barcha jarayonlarda ikkita energiya manbai borligi: Quyosh energiyasi va Yerning ichki energiyasi. Ularning geografik qobiqda taqsimlanishi. Zonallik va hududiylikning tarkib topishi.</p> <p>Tabiat hodisalarida davriylik. Ritmiklik va sikllik. Sutkalik davriylik, uning sababi va oqibatlari. Faslviy davriylik, uning sababi va oqibatlari. Muddatsiz ro'y beruvchi hodisalar, ularning inson hayoti, xo'jaligiga, tabiatga ta'siri.</p> <p>5-mavzu. Inson xo'jalik faoliyatining tabiatga ta'sirining geografik oqibatlari</p> <p>Fan va texnikaning rivojlanishi bilan insonning tabiatga ta'sirining kuchayib borishi. Tog'-kon sanoati, metallurgiya, kimyo sanoati hamda transportning tabiiy muhitga ta'sirining ortib borayotgani.</p> <p>Biologik muvozanatning o'zgarishi va biologik modda aylanishining buzilishi hamda bularning ekologik oqibatlari, atmosfera havosi tarkibiga ta'siri.</p> |
|---|

Inson xo'jalik faoliyati ta'sirida geografik qobiqda issiqlik balansining o'zgarishi. Havoda karbonat angidrid gazi, aerozollar salmog'ining oshishi va uning Yer yuzi havosi haroratiga, ob-havosi va iqlimiga ta'siri. Bularning geografik va ekologik oqibatlari.

#### **6-Mavzu. Tabiiy resurslardan foydalanishning geografik asoslari fanining nazariy asoslari**

Tabiiy resurslardan foydalanishning geografik asoslari fanining ob'ekti, predmeti va metodlari. Fanning nazariy asoslari, maqsadi va vazifalari. Tabiiy muhit, artetabiiy muhit, kvazitabiiy muhit tushunchalari. Tabiiy resurslardan foydalanishning geografik asoslari fanining geograf mutaxassislar tayyorlashdagi roli. Boshqa fanlar bilan aloqalari va bog'liqligi. Asosiy ilmiy-tadqiqot uslublari. Tabiatdan foydalanishning asosiy tamoyillari.

#### **7-Mavzu. Tabiatdan foydalanish bilan bog'liq asosiy tushuncha va atamalar**

"Tabiiy sharoit" va "tabiiy resurslar" tushunchalari o'rtasidagi farq. Tabiiy resurslar tasnifi. "Ekologiya" va "tabiatdan foydalanish" tushunchalarining tor va keng ma'nosi. Biosfera. Noosfera. Geografik qobiq. Geografik muhit. Tabiiy landshaft. Antropogen landshaft. Madaniy landshaft. Geotexnik tizimlar. Tabiiy-xo'jalik hududiy tizimlar konsepsiyasi.

#### **8-Mavzu. Ekologik barqaror rivojlanish konsepsiyasi. Ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishda ekologik omillarning roli**

Ishlab chiqarishning joylashtirishning asosiy omillari. Ishlab chiqarishning joylashtirishning ekologik omillari. Iqtisodiy o'sish omillari. Iqtisodiy o'sishning texnologiyasi. Ekologik muammolarning kelib chiqishi va geografik jihatlari.

BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha 1992 yilgi Rio de Janeyro konferensiyasi. Ekologik barqaror rivojlanish konsepsiyasi. Barqaror rivojlanish mezonlari. Barqaror rivojlanish indikatorlari.

#### **9-Mavzu. Iqlim o'zgarishlari muammosi**

Yerning iqlimiga ta'sir etuvchi omillar. Alohida hududlar iqlimiga ta'sir etuvchi omillar. "Issiqxona effekti". Qadimda iqlim o'zgarishlari. Kuchaytirilgan "Issiqxona effekti". Iqlim o'zgarishlari sabablari. Iqlim o'zgarishlari oqibatlari. O'zbekistonda iqlim o'zgarishlari va uning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri. Iqlim o'zgarishlari muammolari bilan bog'liq xalqaro kelishuvlar.

#### **10-Mavzu. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish turlari va uning hozirgi holati**

Insonning tabiatga ta'sir etishi, kishiilik jamiyati rivojlanishi. Fan-texnika inqilobi va texnikaning rivojlanishi davrida, tabiiy resurslar va ishlab chiqarish vositalaridan xususiy mulk egalariining maksimal daromad olishga intilishi. XVIII-

XIX asrlarda sanoat taraqqiyoti. Fan-texnika inqilobi va uning tabiatdagi o'zgarishlarga ta'siri. Chikindisiz ishlab chiqarishga o'tish. Energiya manbalari, yoqilg'i energetika manbalarining atrof-muhitga ta'siri, parrak effektining kelib chiqishi va uning oqibatlari, ekologik muammolar. Muqobil energiyaga o'tishning zarurligi va uning afzalligi. Quyosh, shamol, geotermal, qalqish, biomassa energiyasi. O'zbekistonda muqobil energiyaga o'tish istiqbollari.

#### **11-Mavzu. Tabiatdan foydalanishni boshqarish va tabiiy muhitni qonuniy himoya qilish**

Tabiatdan foydalanishni boshqarish va uning mohiyati. Boshqaruv tushunchasi, boshqaruvning maqsadi. Tabiatdan foydalanishni boshqarishning xuquqiy asoslari. Tabiatdan foydalanishni boshqarishning davlat institutsional mexanizmi. Tabiiy resurslarni boshqarish organlari va ularning bosqichlari. Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarishda atrof - muhit muhofazasi. Xalqaro, mintaqaviy, mahalliy ekologik siyosat. Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarishning tarixi. Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va uning tasarrufidagi boshqaruv hamda nazorat organlari.

#### **12-Mavzu. Energetika va uning tabiiy-xo'jalik tizimlariga ta'siri. Sanoat va atrof-muhit**

Issiqlik elektr stansiyalari va ularning hududiy farqlanishi. Atom va gidroelektrostansiyalar, ularning tabiiy-xo'jalik tizimlariga ta'siri. Muqobil energiya manbalari. O'zbekistonda muqobil energiya resurslaridan foydalanish istiqbollari.

Sanoatning tabiatga ta'siri. Tog'-kon sanoati. Ochiq holdagi tog'-qazish ishlari. Rekultivatsiya va uning turlari. Qora va rangdor metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, sellyuloza-qog'oz, qurilish sanoati va uning tabiiy tizimlariga ta'siri. Sanoat ifloslovchilaridan atrof-muhitni muhofaza qilish. Tabiiy resurslardan (yer, suv, o'rmon, atmosfera havosi) oqilona foydalanish va muhofaza qilish. Suv, atmosfera resurslari. Qattiq chiqindilarni qayta ishlash.

#### **13-Mavzu. Qishloq xo'jaligi va transportning tabiiy-xo'jalik tizimlariga ta'siri**

Qishloq xo'jaligining tabiatga ta'siri. Tuproqlar degradatsiyasi. Mineral o'g'itlar va pestitsidlar. Fizik ifloslanish. O'zbekistonda qishloq joylarida tabiatdan foydalanish. Tog' va tog'-oldi, voha va cho'l hududlarida tabiatdan foydalanishning asosiy xususiyatlari.

Transportning tabiiy muhitga ta'siri. Temir yo'l transporti. Avtomobil transporti. Quvvur transporti. Havo transporti. Suv transporti.

#### **14-Mavzu. Tabiatdan foydalanishda xalqaro hamkorlik**

Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishda xalqaro hamkorlik aloqalari. O'zbekiston Respublikasining tabiatdan foydalanishdagi xalqaro hamkorligi. Xalqaro ekologik muammolarning yechimini topish va bartaraf etishda xalqaro tajribalar

|  |   |
|--|---|
| <p>hamda xalqaro yo'nalishlardan foydalanish. O'zbekiston Respublikasida BMTni qonunlarini ratifikatsiya qilish va barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirishini ahamiyati. BMT ning rivojlanish dasturi, atrof-muhit bo'yicha BMT dasturi. Iqlimning iliqlashishi, xalqaro suvlarning ifloslanishi, biologik turfa olamning kamayib borishi, ozon qatlarning siyqalamishi borasida hamkorlik aloqalari.</p> <p><b>15-Mavzu. O'zbekistonning ekologik barqaror rivojlanishga o'tishining asosiy yo'nalishlari</b></p> <p>O'zbekistonning suv, atmosfera, o'simlik, hayvonot olami va mineral resurslaridan foydalanish, uni boshqarish. Ularning taqsimlanishida iqtisodiy geografik omillarning roli. Respublika ishlab chiqarish kuchlarini joylashirishda tabiiy resurslaridan foydalanish. Tabiatni muhofaza qilish va uni takror barpo etish doirasidagi me'yoriy hujjatlar. O'zbekiston «Qizil kitobi». Markaziy Osiyo davlatlari hududida tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish oqibatida yuzaga kelgan muammolar. Orol dengizi falokati. Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston respublikalarining hayotida Orol dengizining roli. Orol muammosining hal etilishi ilan bog'liq masalalar. Tuproqlar sho'riylanishi. Cho'llashuv muammosi. Tabiatdan foydalanishning tibbiy geografik jihatlari. Ekologik muammoli hududlar nozogeografik vaziyatini yaxshilashning geografik xususiyatlari.</p> | <p><b>3</b></p> <p><b>III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</b><br/>(list of seminar topics)</p> <p>Amaliy mashg'ulotlarda talabalar hududlarning tabiiy-resurs va mineral xomashyo salohiyatini baholash, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish salohiyatiga doir statistik ma'lumotlarni to'plash, jadvallar tuzish va tahlil qilish bo'yicha ishlarni bajaradilar. Har bir amaliy mashg'ulotni bajarish uchun berilgan ma'lumotlarga tayanib, talabalarga alohida variantlar taklif etiladi. Tabiatdan foydalanishning geografik asoslari kursida, quyidagi mavzularda amaliy ishlar bajariladi.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tabiatdan foydalanishning geografik asoslari fani, uning tadqiqot obyekti va predmeti.</li> <li>2. Antropogen o'zgarishlar, buzilgan, madaniy, o'zgarigan landshaftlar haqidagi adabiyot materiallari o'rganilib, tahlil qilinadi.</li> <li>3. Tabiat va tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash.</li> <li>4. Suv resurslaridan samarali foydalanish va muhofaza qilish.</li> <li>5. Atmosfera havosi, uning resurslaridan foydalanish va uni muhofaza qilish.</li> <li>6. Yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish.</li> <li>7. Biologik resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish.</li> <li>8. Mineral xomashyo resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish.</li> <li>9. Ikkilamchi resurslardan foydalanishning ekologik iqtisodiy xususiyatlari va</li> </ol> |
|--|---|

|  |   |
|--|---|
| <p>yo'nalishlari.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>10. Rekreatsiya resurslaridan ratsional foydalanish va ularni muhofaza qilish.</li> <li>11. Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va ularning ekologik-iqtisodiy muammolari.</li> <li>12. Tabiiy resurs komplekslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish.</li> <li>13. Energiya, oziq-ovqat, chuchuk suv, xom ashyo muammolari.</li> <li>14. Muqobil energiya manbalarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati</li> <li>15. Xalq xo'jaligiga ta'sir etadigan tabiiy geografik jarayonlar tavsifi.</li> </ol> <p><b>IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR</b><br/>(Independent study and independent work)</p> <p>Mustaqil ish o'qituvchining talabalarga avvaldan berib qo'yiladigan fanning mavzulari asosida tashkil etiladi. Mustaqil ish uchun quyidagi berilgan mavzular yuzasidan mustaqil ravishda topshiriqlar bajarib boriladi. Ya'ni xaritalarni loyihalash, chizish, tahlil qilish va ularga sharhlar yozish orqali amalga oshiriladi.</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Inson jamiyati bilan tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalar va ta'sirlar.</li> <li>2. Insonning tabiatga, uning komponentlariga va elementlariga bevosita hamda bilvosita ta'siri.</li> <li>3. Landshaftlarning inson xo'jalik faoliyati ta'sirida o'zgarishi.</li> <li>4. Tabiiy va antropogen landshaftlar.</li> <li>5. Umumiy geografik qonuniyatlar va ular haqidagi bilimlarning ahamiyati.</li> <li>6. Tabiiy resurs, tabiiy sharoit va ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.</li> <li>7. Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy xududlarning turlari va uni tashkil etish.</li> <li>8. Atmosfera havosini muhofaza qilishni iqtisodiy-ekologik ahamiyati.</li> <li>9. Resurslarni iqtisodiy baholash tamoyillari.</li> <li>10. Biologik resurslardan foydalanish va uni muhofaza qilish.</li> <li>11. Mineral xomashyo resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish.</li> <li>12. Ikkilamchi resurslardan foydalanishning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va yo'nalishlari.</li> <li>13. O'zbekistonning mineral xom ashyo resurslari potentsiali va ulardan oqilona foydalanish.</li> <li>14. Ekologik muammolar, paydo bo'lishi, oldini olish.</li> <li>15. Inson xo'jalik faoliyatining ta'sirida Yerdagi issiqlik balansining o'zgarishi va uning oqibatlari.</li> </ol> | <p><b>4</b></p> <p><b>V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari)</b><br/><b>Learning Outcomes (Professional Competences)</b></p> <p>“Tabiatdan foydalanishning geografik asoslari” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:</p> |
|--|---|

|  |   |   |
|--|---|---|
| <p>Fan bo'yicha talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tabiatdan foydalanishda tabiiy muhit sharoitini hisobga olish, umumiy tabiiy geografik qonuniyatlar, geografik qobiq, uning tuzilishi haqida, tabiiy sharoit va tabiiy resurs tushunchasi, tabiiy resurslarning klassifikatsiyasi, tabiiy resurslarning xo'jalik ahamiyati haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi kerak</i>;</li> <li>- geografik qobiqdagi qonuniyatlarini, tabiiy geosistemalar rivojlanishining prognozlarini, tabiat komponentlari orasidagi murakkab o'zaro aloqalar va qonuniyatlarini, tabiatdan foydalanishning turli (ekologik, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy) jihatlari, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini, ekologik iqtisodiy ravyonlashirishni, davlat ekologik ekspertizasini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi kerak</i>;</li> <li>- turli geosistemalar bo'yicha dala tadqiqot ishlari olib borish metodlari, muayyan hududlar tabiiy resurslarini baholash, tabiiy resurslardan foydalanganda yuz beradigan oqibatlar prognozini ishlab chiqish, hududlarning resurs salohiyatini iqtisodiy tahlil qilish va baholash, ekologik ekspertizani bajarish va xulosalar olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul> <p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and): methods:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>   | <p><b>5</b></p> <p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar (Requirements for obtaining loans):</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> | <p><b>6</b></p> <p><b>VIII. TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b></p> <p><b>VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari</b><br/>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Исаченко А.Г. Оптимизация природной среды. -М.: Мысль, 1980.</li> <li>2. Рафиков А.А. Геоэкологик муаммолар. -Т.: Укитувчи, 1997.</li> </ol> |
| <ol style="list-style-type: none"> <li>3. Фуломов П.Н. Ўзбекистонда табиятдан фойдаланишнинг географик асослари. -Т.: Университет, 1990.</li> <li>4. Холмирзасов А. Табиятдан фойдаланиш иктисодиёти. -Т., ЎЗМУ, 2001 й.</li> <li>5. Каюмов А., Рахимов А.К., Якубов У.Ш. Табиятни муҳофаза қилиш ва ундан оқилона фойдаланиш: Ўқув қўлланма.; Маъсул муҳаррир Ю.Ф. Махмудов; Ўзр Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. -Т.: "Fan va texnologiya", 2011.-156 б.</li> <li>6. Каюмов А., Расулов М., Умаров С., Якубов У. Табиятдан фойдаланиш иктисодиёти. -Тошкент, ЎЗМУ, 2005 й.</li> <li>7. Турсунов Х.Т. Экология ва барқарор ривожланиш. Т.: 2009.</li> </ol> <p><b>Қўшимча адабиётлар</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>8. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.</li> <li>9. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи // Халқ сўзи газетаси 2017 йил 16 январ, № 11.</li> <li>10. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т.: Ўзбекистон, 2017.</li> <li>11. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T O'zbekiston 2017.</li> <li>12. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganing 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016-yil 7-dekabr. - T O'zbekiston 2017.</li> <li>13. Environmental Management for Sustainable Development (Routledge Introductions to Environment) 2nd Edition by Chris Barrow (Author) Series: Routledge Introductions to Environment Publisher: Routledge; 2 edition (September 21, 2006) Paperback: 464 pages G'ulomov P.N. Inson va tabiat. -T.: 2009.</li> <li>14. Колесников СИ. «Экологические основы природопользования» ИКЦ, 2005. - 345 стр.</li> <li>15. Профимова В.Л. Природопользование. Тольковский словарь. - М.: Финансы и Статистика, 2002. - 184с.</li> <li>16. Эргашев А.Э., Эргашев А.Т. Экология природной среды Центральной Азии. (Региональная экология). -Т.: "Янги аср авлоди", 2012. - 384 с.</li> <li>17. Эргашев А.Э., Эргашев А.Т. Ҳозирги замоннинг экология муаммолари ва табият муҳофазаси. -Т., 2012 "Янги аср авлоди", 2012. - 404 б.</li> <li>18. Каюмов А. Аҳоли яшаш жойларини кўкаламзорлаштириш. -Т.: "Fan va texnologiya", 2012. - 204 б.</li> </ol> <p><b>Электрон манбалар:</b></p> |   |   |

|   |   |
|---|---|
|   | <p>19. www.uznet.org БМТнинг агроф-мухит бўйича дастури.<br/> 20. www.gov.w.<br/> 21. ww.worlbank.Org.<br/> 22. www.undfa.org.<br/> 23. www.fedotl.uz.<br/> 24. www.ZivoNet</p>   |
| 7 | <p><b>Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b><br/> Fanning o'quv dasturi Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining<br/> 2024 yil "14" 06 dagi 11 -sonli yig'ilish bayonnomasi bilan<br/> tasdiqlangan.</p> |
| 8 | <p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b><br/> <b>Abdumo'minov B.O.</b> – TerDU "Geografiya" kafedrasi mudiri, g.f.f.d (PhD).<br/> <b>Choriyev A.Q.</b> – TerDU "Geografiya" kafedrasi katta o'qituvchisi</p>  |
| 9 | <p><b>Taqrizchilar:</b><br/> <b>O'.Yakubov</b> - TerDPI "Geografiya va uni o'qitish metodikasi"<br/> kafedrasi dotsenti, g.f.n.<br/> <b>Q.A.Allanov</b> - TerDU, "Geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.n.</p>  |